

KASBIY-PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUNI

Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17627680>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy-pedagogik mahorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifati bilan bevosita bog'liqligi haqida tahliliy fikrlar berilgan. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish omillari, uni takomillashtirish yo'llari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy-pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, didaktik qobiliyat, innovatsion yondashuv, shaxsiy fazilatlar, ta'lim sifati, o'qituvchi kompetensiyasi, refleksiya, metodika.

THE CONCEPT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL SKILLS AND ITS CONTENT

Khudoyberganova Matluba Kulsokhatovna
Uzbek National Pedagogical University named after Nizami
Independent researcher

Abstract: This article discusses the concept of professional and pedagogical skills, its content and role in the modern educational process. Analytical views are given on the main components of pedagogical skills, their direct connection with the personal and professional qualities of the teacher. The factors of formation of the teacher's professional skills, ways of its improvement are also considered.

Keywords: Professional and pedagogical skills, pedagogical activity, didactic skills, innovative approach, personal qualities, quality of education, teacher competence, reflection, methodology.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagogdan chuqur bilim, zamonaviy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va kasbiy mahoratni talab etmoqda. O'qituvchilik — bu oddiy kasb emas, balki ijtimoiy mas'uliyatli va doimiy o'sishni talab qiladigan ijodiy faoliyatdir. Shu bois, har qanday pedagog uchun kasbiy-pedagogik mahoratning mazmunini chuqur tushunish va uni doimiy ravishda rivojlantirib borish muhim ahamiyatga ega.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ta'limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat-muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir. Pedagogik mahorat – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malaka majmui hisoblanadi.

Pedagogik mahorat tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. "Pedagogik ensiklopediyada" quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifdan ham anglashimiz mumkin

pedagogik mahorat tushunchasi bu pedagogning o'z faoliyatida eng yuqori cho'qqiga chiqishi, har tomonlama bilim salohiyatga ega bo'lishi ekan. [1]

Kasbiy-pedagogik mahorat tushunchasi

“Kasbiy mahorat” — bu muayyan kasb doirasidagi malaka, tajriba va ko'nikmalar majmuasidir. Pedagogik mahorat esa — o'quvchi shaxsini shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha o'qituvchining kasbiy va shaxsiy qobiliyatlari uyg'unligidir. Bu tushuncha pedagogik bilim, amaliy ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va kasbiy etikani o'z ichiga oladi. Shuningdek, u o'qituvchining ijtimoiy-madaniy, psixologik va kommunikativ tayyorgarligini ham qamrab oladi.

Bu tushuncha faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikma, shaxsiy sifat va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Kasbiy-pedagogik mahorat o'qituvchining umumiy dunyoqarashi, kommunikativ qobiliyati va kasbiy refleksiya bilan bevosita bog'liqdir.

Kasbiy-pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari

1. **Kasbiy bilimlar** –o'z fanini chuqur bilish, pedagogika, psixologiya va didaktika asoslarini o'zlashtirish.
2. **Pedagogik texnika**–nutq madaniyati, mimika, pantomimika, ovoz nazorati, darsni boshqarish usullari.
3. **Metodik tayyorgarlik**– ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, dars turlari va uslublarini to'g'ri tanlash.
4. **Shaxsiy sifatlar**–sabr-toqat, impatiya, ijodkorlik, tashabbuskorlik, o'z ustida ishlashga intilish.
5. **Kommunikativlik ko'nikmalar** – o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan sog'lom muloqot yurita olish.
6. **Refleksiya va o'z-o'zini baholash** –o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni ko'ra olish va to'g'irlash.
7. **Innovatsion yondashuvlar** – interaktiv metodlardan foydalanish, axborot texnologiyalarini dars jarayoniga qo'shish, uzluksiz o'qib-o'rganishga tayyorliklar kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy-pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llari:

- Amaliy mashg'ulotlar va dars kuzatuvlari orqali tajriba to'plash;
- Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va tadbiq qilish;
- Seminar-treninglar, kurslar, malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish;
- Pedagogik refleksiya- o'z darslarini tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish;
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish, AKT bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish;
- Ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish, masalan, loyihaviy faoliyatda ishtirok etish.

Zamonaviy ta'lim talablarida kasbiy-pedagogik mahoratning o'rni

Bugungi kunda o'qituvchi faqat bilim manbai emas, balki motivator, rahbar va maslahatchi bo'lishi kerak va o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashi zarur. Shuningdek, o'qituvchi interfaol metodlar (klaster, debat, loyihalar, rolli o'yinlar) dan foydalana olishi, multimediya va sun'iy intellekt vositalarini o'quv jarayoniga tadbiq eta bilishi kerak. Shu

sababli o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahorati nafaqat shaxsiy, balki jamiyat rivoji uchun ham muhim resurs hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik mahoratning ahamiyati

Kasbiy-pedagogik mahorat ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. U quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- Darsning sifati va samaradorligi oshadi;
- O'quvchilarning faolligi va bilimga qiziqishi ortadi;
- O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qila oladi va o'zini takomillashtirishga intiladi;
- Ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv shakllanadi;
- O'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar rivojlanadi.

Pedagogik mahoratni shakllantirish pedagogik yo'nalishdagi Oliy ta'lim muassasalari o'quv-ilmiy faoliyatidagi asosiy jihatlardan biridir. Bo'lajak pedagoglarni o'z kasbiy mahoratlarini talabalik davridanoq rivojlantirib borishga yo'naltirish kerak. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim uchun eng muhim masalalardan biri – talabalarda pedagogik kompetensiyani shakllantirishdir. Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo'lish talabi faqatgina o'qituvchilarga emas, shu bilan birga jamoa bilan, ijtimoiy sub'ektlar bilan ishlaydigan har qanday mutaxassislariga ham qo'yilmoqda. Binobarin, tirik mavjud bo'lgan shaxslarga ta'sir ko'rsatish, ularni boshqarish oson kechmaydi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning muayyan darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishlari zarurligini taqozo etmoqda.[2]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar o'z ustida tinimsiz ishlashi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalaridan samarali foydalana olishi va ularni dars jarayonlariga tadbiiq eta olishi kerak. Kasbiy-pedagogik mahorat — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutuvchi, ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Yaxshi o'qituvchi — bu faqat bilimga ega bo'lgan emas, balki bu bilimni o'quvchilarga to'g'ri yetkazish, ularning qiziqishi va iqtidorini rivojlantirishga qodir pedagogdir. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'z kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi, yangi metodlarni o'zlashtirishi va o'z ustida izchil ishlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunova D.B. Ta'lim jarayonida pedagogik mahorat "Ekonomika va sotsiyum" 2022 www.iupr.ru
2. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent 2020-yil
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent 2011-yil
4. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik Toshkent 2009-yil
5. Xoliqov I. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyasini shakllantirish. Pedagogik mahorat. 1-son(2022-yil,fevral)
6. Shodmonova, N. (2017). Kasbiy pedagogik tayyorgarlikda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish yo'llari. O'zbekiston pedagogika jurnali, №3.
7. Zakirova, Z.I. (2022). Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. Toshkent: «Iste'dod».
8. Bozorov, S. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. T.: TDPU nashriyoti